

## INGLIZCHA O'ZLASHMALARNING SEMANTIK TAHLILIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

*Polvannazirova Sevara Xasanboy qizi, Urganch davlat universiteti  
“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi stajor-o‘qituvchisi,  
Xorazm Ma’mun akademiyasi doktoranti*

## REVIEW ON THE SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH BORROWINGS

*Polvannazirova Sevara Xasanboy qizi, intern-teacher of the  
“Theory and Practice of Translation” department of Urganch  
State University, doctoral student of Khorezm Ma’mun Academy*

## НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО СЕМАНТИЧЕСКОМУ АНАЛИЗУ АНГЛИЙСКИХ ЗАЙМСТВОВАНИЙ

*Полванназирова Севара Хасанбой кызы, стажер-  
преподаватель кафедры “Теория и практика перевода”  
Ургенчского государственного университета, докторант  
Хорезмской академии Маъмуна*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz tilidan o‘zlashgan eng yangi qatlam semantik jihatdan tahlil qilingan. Maqolada semantik tahlilga tortilgan ba’zi o‘zlashmalarning ma’no qirralarini aniqlash va ularning qaysi kontekstlarda ishlatalishini aniqlashga doir ilmiy izlanishlar natijasi keltirilgan. O‘zbek tiliga o‘zlashgan inglizcha so‘zlarning dastlabki ma’nolaridagi o‘zgarish, moslashish yoki kengayish holatlari misollar yordamida yoritilgan. Shuningdek, maqolada inglizcha o‘zlashmalarning boshqa so‘zlar bilan sinonimik va antonimik aloqasi o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘zlashma so‘z, denotatsiya, konnotatsiya, metoforik ma’no, semantik transformatsiya.

**Abstract:** In this article, the newest layer acquired from the English language is analyzed semantically. The article presents the results of scientific research to determine the meaning aspects of some of the appropriations subjected to semantic analysis and the contexts in which they are used. The cases of change, adaptation, or expansion of the original meanings of English words adopted into the Uzbek language are explained with the help of examples. The article also studies the synonymous and antonymous relationship of English borrowings with other words.

**Key words:** idiom, denotation, connotation, metaphorical meaning, semantic transformation.

**Аннотация:** В данной статье семантически анализируется новейший пласт, приобретенный из английского языка. В статье представлены результаты научных исследований по определению смысловых аспектов некоторых присвоений, подвергнутых семантическому анализу, и определению контекстов, в которых они используются. С помощью примеров поясняются случаи изменения, адаптации или расширения первоначальных значений английских слов, принятых в узбекский язык. В статье также исследуются синонимические и антонимические отношения английских заимствований с другими словами.

**Ключевые слова:** фразеологизм, денотат, коннотация, метафорическое значение, семантическая трансформация.

**KIRISH.** Globallashuv jarayonida Internet fenomenining sezilarli kuchga ega bo‘lishi, media diskursining ommalashishi, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari sonining keskin o‘sishi, o‘z navbatida, tillararo so‘z o‘zlashtirishning faollashuvi va neologizmlarning tillararo yoyilishi bilan bog‘liq dolzarb muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Shu sababli dunyo tilshunosligida neoo‘zlashmalarning muqobillarini aniqlash, tavsiflash va ularning izohli lug‘atini yaratish bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda yangi o‘zlashayotgan birliklarni semantik tahlillar asosida o‘rganish va o‘zlashmalarning tilning milliy tabiatiga muvofiqligi, fonetik, semantik va morfologik assimilyatsiyasiga alohida urg‘u berilmoqda. O‘zbek tili leksikasidagi aksariyat zamonaviy o‘zlashmalar raqamli medianing keng yoyilishi bilan bog‘liq. So‘z o‘zlashtirish jarayoni jiddiy faollashgani sababli o‘zbek tilining ontologik xususiyatlarini ko‘proq hisobga olish, o‘zlashmalarni tilning milliy tabiatiga muvofiq holda qabul qilish ehtiyoji ham ortib boryapti.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** So‘nggi yillarda o‘zlashmalarni turli tomondan o‘rganish o‘zbek tilshunosligining tahlitalab masalasi bo‘lib qolmoqda. O‘zlashmalarni o‘rganish borasida barakali ijod qilgan tilshunos olim, professor O.O.Jumaniyozov o‘zlashmalarning tilda faol qo‘llanishining sababi sifatida ularning resipiyyent tildagi semantik transformatsiyasini keltirib o‘tgan: o‘zlashmalar “ma’nolaridagi konkretlashuv yoki umumiylashuv, ma’nodagi torayish yoki kengayish, salbiy yoki ijobiy ma’no olishi so‘z o‘zlashuvining obyektiv sabablari hisoblanadi”[2]. Zamonaviy o‘zlashmalar borasida R.A.Rahimov izlanishlarida o‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashmalarni o‘rganishda semantik va morfologik jihatdan chuqur tahlil qilib, ularning til rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatishga harakat qilgan[3]. Shuningdek, S.A.Qodirov o‘zining inglizcha o‘zlashmalarning semantik o‘zgarishlariga bag‘ishlangan ilmiy ishida o‘zlashmalarni o‘zbek tilida qabul qilish jarayonida ularning ma’nolaridagi o‘zgarishlarni o‘rganadi.

O‘zlashmalar qanday qilib mahalliy madaniyat bilan bog‘lanishini ko‘rsatadi.

**MUHOKAMA.** Inglizcha o‘zlashmalar o‘zbek tilida ma’lum darajada semantik transformatsiyalarga uchraydi va bu jarayon o‘zbek tilidagi semantik tizimga ta’sir ko‘rsatadi, tilning rivoji va zamonaviy hayot talablariga moslashishini ta’minlaydi. Ingliz tilidan o‘zlashmalarni o‘rganish uchun semantik tahlil juda muhimdir, chunki u so‘zlearning ma’no qirralarini aniqlash va ularning qaysi kontekstlarda ishlatilishini aniqlashga yordam beradi.

**Ma’no torayishi va kengayishi:** Ingliz tilidan kirib kelgan ko‘plab so‘zlar o‘zbek tilida qo‘llanilganda o‘zining asl ma’nosini toraytirishi yoki kengaytirishi mumkin. Ya’ni, so‘zlearning ba’zi ma’nolari faqatgina muayyan kontekstlarda ishlatilishi mumkin bo‘lsa, ba’zi holatlarda ular yangi yoki kengroq ma’no yukini oladi. Quyida ba’zi o‘zlashmalarni semantik transformatsiya nuqtayi nazaridan tahlilga tortdik:

**City** [siti] – “shahar” so‘zi manba tilida ma’lum bir geografik hududni ifodalash uchun ishlatiladi. O‘zbek tilida “siti” so‘zi O‘zbekistonidagi ko‘plab turizm markazlari bo‘lgan Shahar nomlariga qo‘shib ishlatilmoqda “Khiva city”, “Samarkand city” singari. Bundan tashqari, mazkur so‘z ergonom sifatida ham faol qo‘llanilayotganiga guvoh bo‘lisjimiz mumkin “Mario city” o‘yingohi, “Parfum city” do‘konni kabi ishlatilishi “city” so‘zi o‘zbek tiliga o‘zlashganda ma’no kengayishiga uchraganidan dalolat beradi.

**Peak** [pi:k] so‘zi ingliz tilda ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, “cho‘qqi”, “eng baland nuqta”, “avjiga chiqmoq” tarzida tarjima qilinadi, ushbu so‘z tilimizga o‘zlashganda faqat “avjiga chiqmoq” ma’nosida ishlatiladi.

**Account** [a:kkəount] so‘zi o‘zbek tiliga “hisob” deb tarjima qilinadi va ko‘pincha bank-moliya sohasida “Bank hisob raqami”, “Depozit hisob raqami” kabi ma’lumotlarda ishlatiladi, lekin bu so‘z o‘zbek so‘zlashuvchilari orasida ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy sahifasiga nisbatan ishlatiladi, ya’ni o‘zbek tilida bu so‘zning ma’nosini toraygan.

**Direct** [dairekt] so‘zi manba tilida turli so‘z turkumiga mansub so‘z sifatida: “yo‘naltirmoq”, “to‘g‘ridan to‘g‘ri”, “aniq” degan ma’nolarni ifodalaydi, resipient tilda esa, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarning shaxsiy sahifasiga “to‘g‘ridan to‘g‘ri yozish” kabi ma’noda qo‘llaniladi. **Trend** [trend], **content** [cəntent], **post** [po:st] kabi so‘zlar ingliz tilida turli ma’nolarda va kontekstlarda ishlatsa ham, o‘zbek tilida tor doirada, asosan, internet foydalanuvchilari tomonidan ishlataladi.

**Tilning zamonaviylashuvi va leksik boylikning oshishi:** inglizcha o‘zlashmalar o‘zbek tilining zamonaviylashuvida va yangi tushunchalarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Carol Myer’s-Scottonning neologizmlar tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarida o‘zlashmalarni 2 turga bo‘ladi: *core borrowing – tub o‘zlashmalar* va *cultural borrowing – madaniy o‘zlashmalar*[4]. Zamonaviy texnologiyalar, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishlar natijasida yuzaga kelgan yangi tushunchalarni ifodalash uchun tilimizga kirib kelgan o‘zlashmalar madaniy o‘zlashmalarga kiradi: *internet, vebinar, messenger, online, robot, smartfon, komputer* kabi o‘zlashmalar shular jumlasidandir. Tilimizda mavjud bo‘lgan so‘zlarning inglizcha talqinidan foydalanish tub o‘zlashmalar sirasiga kiradi.

“Yaratuvchan” so‘zining o‘rniga “creative” so‘zini ishlatish, “suhbat” so‘zining o‘rniga “chat” so‘zi, “parti” (ziyofat), “introvert” (uyatchan), “extrovert” (kirishimli), “mobil” (moslashuvchan) so‘zlarining ishlatilishi jamiyatimizdagi o‘zbekingliz ikkitilliligining mavjudligi va globalizatsiya ta’sirida o‘zlashgan tub o‘zlashmalar hisoblanadi. Semantik tahvilning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

**Asosiy ma’no va konnotatsiya:** inglizcha o‘zlashmalarni semantik tahlil qilar ekanmiz, ulardagi denotatsiya va konnotatsiyaga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. “Denotatsiya” so‘zning asosiy atash ma’nosini bo‘lgani holda, “konnotatsiya” so‘zning qo‘srimcha ma’nosini, ya’ni, ijobjiy yoki salbiy ma’no yoki hisoblanadi. O.S.Ahmanovaning ta’biri bilan aytganda, “Konnotatsiya qo‘srimcha ma’no, rang, bo‘yoqdorlik. So‘zning asosiy ma’nosini ustiga qo‘yilgan, turli xildagi ekspressiv-ijtimoiy baho obertonlarini ifodalashga xizmat qiluvchi qo‘srimcha ma’no, so‘zga hamroh bo‘lgan semantik yoki stilistik ottenkalardir”[5]. Shuningdek, I.A.Sternin so‘z ma’nosining konnotativ makrokomponenti “baho”, “emotsiya” kabi semantik hamda fakultativ tarzda gonorofik komponentlarni qamrab olishini bayon qilgan[6].

O‘zlashma so‘z	Denotatsiya	Konnotatsiya
Manager-menejer	boshqaruvchi shaxs, jamoa yoki tashkilotning rahbari	“Nufuzli”, “katta mas’uliyat egasi”, ba’zida esa “buyruq beruvchi”
Fitness	Sog‘lom hayat tarzini saqlash va jismoniy tayyorgarlik	“Sog‘lomlik”, “zamonaviylik” va “faol hayat”
Fan	Muayyan san’at, sport yoki shaxsga qiziqadigan odam	“Sodiq”, “g‘ayratli”
Ekspert	Biror sohada yuqori bilim va tajribaga ega shaxs	“Ishonchli”, “obro‘li” yoki “bilimli”, “yuqori malakali va nufuzli”
Design-dizayn	Loyiha, reja yoki chizma tayyorlash	“Ijodiy”, “zamonaviy” va “innovatsion”
Model	Andoza yoki namunali shakl	“Chiroyli”, “zamonaviy” yoki “ideal”
Boss	Rahbar, boshliq	“Qo‘pol”, “katta kuchga ega” yoki “hukmron”

Show-shou	Tomosha yoki dastur	“Qiziqarli”, “yorqin”, “ijodiy” “muhokamali”
Bonus	Qo’shimcha mukofot yoki imtiyoz	Qo’shimcha foyda, rag’bat yoki kutilmagan quvонch
Agent	Vakil yoki vositachi shaxs	“Ayyor”, “josus” yoki “yashirin kuchlar vakili”

**Kontekstual ma’no:** so‘zlearning ma’nosini u ishlatalidigan kontekstga qarab o‘zgaradi. Ingliz tilidan o‘zlashmalar o‘zbek tilida turli kontekstlarda ishlatalganda, ularning ma’nosida o‘zgarishlar kuzatiladi. Quyida o‘zlashmalarning turli kontekstlarda turli ma’nolarni ifodalashini misollar yordamida ko‘rib chiqamiz:

**“File-fayl”:** “Faylni oching” – kompyuter xotirasidagi ma’lumotlar hujjatini nazarda tutadi. “Faylingizni to‘g‘rilang” gapida esa hujjatlarni to‘g‘ri saqlash yoki tashkil qilishga ishora qiladi.

**“Coach-koach”:** “U basketbol bo‘yicha koach” – bu yerda “koach” trener yoki murabbiyni bildiradi. “U psixologik koach yoki mentor” – ba’zan “koach” so‘zi shaxsiy yoki kasbiy rivojlanish bo‘yicha maslahatchini ham anglatishi mumkin.

**“Marketing”:** “Kompaniyamiz marketing strategiyasini o‘zgartiryapti” – bu yerda “marketing” kompaniya strategiyasini anglatса, “Marketing kurslariga yozildim” gapida “marketing” so‘zi tijorat yo‘nalishidagi bilim olishni anglatadi.

**“Monitor”:** “Monitorni almashtirish kerak” – bu yerda “monitor” kompyuter ekrani ma’nosini anglatadi. “Tibbiyat markazida bemorlarni monitor qilishadi” kabi kontekstlarda kuzatish yoki nazorat qilish ma’nosida ishlatalgan.

**“Format”:** “Hujjatni yangi formatda saqlang” – bu yerda “format” fayl tuzilishini anglatadi. “Tadbirning formati o‘zgardi” – bu yerda “format” tadbir turi yoki uslubini anglatadi.

**Sinonim va antonim tahlili:** inglizcha o‘zlashmalar va ularning o‘zbek tilidagi sinonimlari va antonimlari orasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish o‘zlashmalarning to‘liq ma’no qirralarini aniqlash va uning boshqa so‘zlar bilan qanday munosabatda bo‘lishini tushunishga yordam beradi. Ba’zi o‘zlashma so‘zlar bevosita o‘zbekcha so‘zlar bilan bir xil ma’no ifodalaydi, ya’ni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sinonimlik hosil qiladi: “platforma” – “maydon”,

“identifikatsiya” – “aniqlash”, “monitoring” – “nazorat”, “kompleks” – “majmua”, “effect” – “ta’sir” kabi. O‘zlashmalarni antonimik tahlil qilar ekanmiz, ko‘pchilik o‘zlashmalar tushunchaviy xarakterga ega bo‘lganligi tufayli, ularga mos milliy so‘zlar orasida antonim juftliklar shakllanishi qiyinligiga guvoh bo‘ldik.

**Metaforik va idiomatik ma’nolar:** ba’zi o‘zlashmalar o‘zbek tilida metaforik yoki idiomatik ma’no qirralarini olishi mumkin. O‘zlashma so‘zlarda metaforik va idiomatik ma’nolar ko‘pincha ularning yangi tilda qabul qilinganidan so‘ng paydo bo‘ladi. Ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tilida ham literal (asosiy) ma’noda, ham ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Metaforalar, asosan, anglash funksiyasi bilan bir narsani boshqa narsa nuqtayi nazaridan tasavvur qilish usulidir[7]. O‘zlashma so‘zlar o‘zbek tilida metaforik ma’noda ishlatalganda, ular asosiy ma’nolaridan farq qiladi va yangi tushunchalarni ifodalaydi. Quyida o‘zlashmalarning ko‘chma ma’noda ishlatalishiga doir ba’zi misollarni ko‘rib chiqamiz.

**“Bomb”** so‘zi manba tilida “portlashga olib keluvchi quroq” ma’nosida ishlataladi va o‘zbek tiliga ham shu ma’noda o‘zlashgan. Lekin ba’zan mazkur so‘z “kutilmagan va katta ta’sir qiluvchi”, “shovshuvga sabab bo‘luchchi voqeа yoki xabar” kabi metaforik ma’noda ishlatalishiga ham guvoh bo‘lamiz: “Yangi mahsulot reklamasi bozorda bomba kabi tarqaldi”.

**“Robot”** so‘zi asliyat tilida mexanik uskunalar yordamida ishlaydigan avtomatlashtirilgan mexanizmni anglatadi. Mazkur so‘z o‘zbek tilida his-tuyg‘usiz, mexanik tarzda ishlaydigan odamni ifodalash uchun ishlataladi: “U robotdek, hech qanday his-tuyg‘usiz ishlaydi”.

**“Pirate”** so‘zi “dengizda boshqalarni talontaroj qiluvchi jinoiy guruh a’zosi” degan ma’noni ifodalaydi. O‘zbek tiliga metaforik ma’noda

o‘zlashgan, ya’ni, “noqonuniy nusxasini ko‘chirib ishlatalidan shaxs yoki mahsulot”ga nisbatan ishlatalidi: “Bu dastur pirat (noxolis) nusxada qo‘llanilmoqda”.

**XULOSA.** Inglizcha o‘zlashmalarning semantik tahlili ularning o‘zbek tiliga qanday moslashganligini, qaysi kontekstlarda qo‘llanilishini va ma’no qirralarini to‘liq tushunishga yordam beradi. Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, o‘zlashmalarning katta qismi global tarzda internet foydalanuvchilari tomonidan qo‘llaniladigan atamalar hisoblanib, o‘zbek tiliga o‘zlashganda ma’no torayib, faqat ma’lum bir ijtimoiy qatlama foydalanadigan so‘z sifatida qabul qilingan. Inglizcha o‘zlashmalar o‘zbek tilida ishlatilganda, ular mahalliy madaniyat va til tizimiga moslashadi. O‘zlashma so‘zlar sinonim va antonim tahlilida til boyligini oshirish bilan birga, so‘zlashuvdagagi ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur tahlil natijasida sinonim va antonimlik munosabatlarini, metaforik va idiomatik ma’nolar orqali o‘zlashma

so‘zlar ifoda usullarini chuqur anglab, so‘zlarni to‘g‘ri ishlatishni o‘rganish mumkin.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Erkaboyeva N.Q. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. T.: Akademnashr, 2012.– 432 b.
2. O.Jumaniyozov. O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari. T.: Fan, 1987. – 133 b.
3. R.A. Rahimov. O‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashmalar: semantik va morfologik tahlil, 2023.
4. Carol Myer’s-Scotton. Multiple voices: an introduction to bilingualism. Malden, MA: Blackwell. 2006.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия. 1966.
6. Стернин И.А. Проблемы анализа структуры значения слова. – Воронеж. 1979.
7. Татьяна Олыник. Metaphor Translation Methods. International Journal of Applied Science and Technology, 2014. 4(1), pp. 123–126.

